

**KRIMINOLOGIYADA «JINOYAT CODIR ETISHGA MOYIL SHAXC»  
TUSHUNCHACI VA UNING DEVIANT XULQ-ATVOR BILAN O‘ZARO  
BOG‘LIQLIGI**

**Xayitov Farrux Shermatovich**

*Qashqadaryo viloyati Jinoyat ishlari bo‘yicha  
Shahrisabz shahar sudining sudya yordamchisi*

**Annotasiya:** *Maqolada kriminologiya fanining markaziy muammolaridan biri bo‘lgan jinoyat sodir etishga moyil shaxs tushunchasi va uning deviant xulq-atvor bilan o‘zaro determinatsion bog‘liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi destruktiv o‘zgarishlar, normativ tizimdan og‘ish va ularning kriminogen xulq-atvorga aylanish bosqichlari kriminologik maktablar va zamonaviy tadqiqotlar prizmasida ko‘rib chiqilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *jinoyatga moyil shaxs, kriminologik qiyofa, deviant xulq-atvor, kriminogen determinatsiya, anomiya, ijtimoiylashuv, delikventlik, barvaqt profilaktika.*

**Abstract:** *The article provides a scientific and theoretical analysis of the concept of a person prone to committing crimes, as one of the central problems in criminological science, and its mutual determinational relationship with deviant behavior. Destructive changes in the process of individual socialization, deviation from the normative system, and the stages of their transformation into criminogenic behavior are examined through the prism of criminological schools and modern research.*

**Keywords:** *crime-prone personality, criminological profile, deviant behavior, criminogenic determination, anomie, socialization, delinquency, early prevention.*

**Аннотация:** *В статье научно-теоретически проанализировано понятие личности, склонной к совершению преступлений, как одна из центральных проблем криминологической науки, а также её взаимосвязь с девиантным поведением. В призме криминологических школ и современных исследований рассмотрены деструктивные изменения в процессе социализации личности, отклонения от нормативной системы и этапы их трансформации в криминогенное поведение.*

**Ключевые слова:** *личность, склонная к преступлению; криминологический облик; девиантное поведение; криминогенная детерминация; аномия; социализация; деликвентность; ранняя профилактика.*

Zamonaviy kriminologiya ilmining ustuvor yo‘nalishlaridan biri jinoyatchilik oqibatlarini bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olish, ya‘ni, genezisini mikrosotsium darajasida jinoyatga qadar bo‘lgan bosqichda bartaraf etishdan iborat. Jinoyatchilik profilaktikasini samarali tashkil etish esa bevosita jinoyat sodir etishga moyil shaxslarning ijtimoiy-psixologik va kriminologik qiyofasini chuqur o‘rganishni, ularning xulq-atvoridagi og‘ishlarni vaqtida tashxislashni talab etadi. Shaxsning huquqbuzarlik sodir etishga qadar

bo‘lgan ijtimoiy pozitsiyasi va deviant rivojlanish traektoriyasini ilmiy asosda tadqiq etmay turib, davlat va jamiyat miqyosida «barvaqt profilaktika» konsepsiyasini to‘liq amalga oshirib bo‘lmaydi.

Ushbu muammoning bugungi kundagi dolzarbligi quyidagi nazariy va amaliy omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasida «jinoyatlarning barvaqt oldini olish» tizimi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, jinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasi tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda jazolash orqali jinoyatchilikni jilovlash eskirgan metod ekanligi, asosiy e‘tibor jinoyat sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni va eng muhimi — shaxsdagi jinoiy moyillikni ilk kurtak yozish davrida aniqlab, ijtimoiy rehabilitatsiya qilish lozimligi kun tartibiga qo‘yilgan. Bu esa kriminologiya fani oldiga jinoyat sodir etgan shaxslar emas, balki jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan individlarning kriminologik qiyofasini yaratishdek murakkab ilmiy vazifani qo‘yadi.

Ikkinchidan, jinoyat sodir etishga moyil shaxsning shakllanishi bevosita u yashab turgan ijtimoiy muhit va mikrosotsium bilan uzviy bog‘liq. O‘zbekistonning o‘ziga xos milliy qadriyatlari va demografik tuzilishidan kelib chiqqan holda, bunday eng yaqin mikrosotsium — bu mahalladir. Bugungi kunda mahalla darajasida «mahalla yettiligi» faoliyat yuritayotgan bo‘lsa-da, ularning jinoyatga moyil shaxslar bilan ishlash tizimi ko‘pincha faqat ma‘muriy va nazorat xarakteriga ega bo‘lib qolmoqda. Individning deviant xulq-atvori qanday qilib huquqbuzarlik va keyinchalik jinoiy xulq-atvoriga transformatsiya bo‘lishini mahalla darajasida tashxislaydigan ilmiy-metodologik baza va aniq baholash mezonlari, ya‘ni, kriminologik indikatorlari mavjud emas.

Uchinchidan, deviant xulq-atvor: ichkilikbozlik, giyohvandlik, oilaviy zo‘ravonlik, surunkali ishsizlik va ijtimoiy begonalashish hamda jinoyatga moyillik o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlar tobora murakkablashib bormoqda. Zamonaviy globallashtirish va raqamlashtirish davrida shaxsning jinoiy moyilligi nafaqat an‘anaviy omillar, balki virtual makon ta‘sirida ham tez sur‘atlarda shakllanishi kuzatilmoqda. Shu sababli, mahalla institutining ushbu og‘ishlarni barvaqt aniqlashdagi imkoniyatlari va mas‘uliyatini kriminologik jihatdan qayta ko‘rib chiqish, mavjud amaliyotni ilmiy diagnostika metodlari bilan boyitish zarur.

Kriminologiyada jinoyatchi shaxsi muammosini o‘rganish konseptual qarashlarning tizimli to‘qnashuvi, bir-birini inkor etishi va evolyusion transformatsiyasi jarayonida rivojlanib kelmoqda. Bu yo‘nalish turli davrlarda yaratilgan fundamental nazariyalarning o‘zaro ziddiyatli jihatlarini tahlil qilish orqali bugungi bosqichga yetib kelgan.

Bu jarayonning shakllanish davri XIX asrning ikkinchi yarmida Ch.Lombrozo asos solgan kriminal antropologiya maktabi va unga muqobil ravishda yuzaga kelgan sotsiologik yo‘nalish o‘rtasidagi keskin nazariy farqlarda namoyon bo‘ladi. Ch.Lombrozo jinoyatchilikni sof biologik determinizm nuqtai nazaridan asoslab, individning kriminal xulq-atvori uning atavistik xususiyatlari va irsiy omillari mahsuli ekanligini, ya‘ni jinoyatchilik tug‘ma xarakter kasb etishini ilgari surdi[1]. Biroq, ushbu antropologik yondashuvga javoban fransuz kriminologi J.Gabriel Tard o‘zining «Taqlid qonunlari» nazariyasida biologik argumentlarni butunlay inkor etdi. Tardning talqiniga ko‘ra,

jinoyatchilik ijtimoiy hodisa bo‘lib, individ o‘zi yashab turgan ijtimoiy muhitdagi salbiy namunalarga taqlid qilish va ularni o‘zlashtirish orqali kriminal yo‘lga kiradi[2].

Bu yo‘nalishdagi konseptual farqlar keyinchalik kriminologiyada «biologik va sotsiologik determinantlar paradigmasi» sifatida rivojlandi. Sotsiologik maktabning yana bir yirik vakili E.Dyurkgeym diqqat markazini individdan jamiyatning umumiy holatiga qaratdi. Uning «anomiya» nazariyasiga ko‘ra, jinoyatchi shaxsi jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy normalarning inqirozi, tartibsizlik va ijtimoiy nazoratning susayishi natijasida yuzaga keladigan mahsuldir[3]. Anomiya konsepsiyasini shaxs darajasida rivojlantirgan R.Merton esa shaxsning deviant va kriminal xulq-atvorini jamiyat tomonidan belgilangan maqsadlar va unga erishishning qonuniy imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyat natijasi sifatida baholadi[4].

Chikago kriminologiya maktabi vakillari K.Shou va G.Makkey esa shaxsdagi jinoiy moyillikni «ijtimoiy dezorganizatsiya» nazariyasi orqali tushuntirdilar. Ularning fikricha, jinoyatchi shaxsini individual patologiya emas, balki u yashab turgan ijtimoiy muhitning, xususan, ekologik va hududiy nosog‘lomlikning mahsuli deb qarash lozim[5]. Bu qarashga yaqin bo‘lgan E.Sazerlend o‘zining «differensial aloqalar» nazariyasida shaxsning jinoyatga moyilligi sof mikrosotsiumda, ya’ni individning jinoiy guruhlar yoki shaxslar bilan bevosita muloqot qilishi va ularning qadriyatlarini o‘rganishi natijasida yuzaga kelishini asoslab berdi[6].

XX asrga kelib, mazkur muammoga psixologik va psixoanalitik maktablar o‘zgacha yondashuv olib kirdilar. Z.Freyd va uning izdoshlari shaxsning kriminogenligini tashqi antropologik belgilar yoki oddiy ijtimoiy taqlid bilan emas, balki individ ong osti tizimidagi ichki ruhiy nizolar, bostirilgan hissiyotlar va bolalik davrida shakllangan psixologik jarohatlar kompleksi orqali tushuntirishga harakat qildilar[7]. Psixologik yo‘nalishni konstitutsional tip nazariyasi bilan boyitgan U.Sheldon esa shaxsning tana tuzilishi va uning xarakteri o‘rtasidagi bog‘liqlikni[8] o‘rganib, mezomorf (jismonan baquvvat, agressivlikka moyil) tipli shaxslarda kriminal xulq-atvor shakllanish ehtimoli yuqoriligini ta’kidladi.

Shu bilan birga, XX asr o‘rtalari va oxiridagi kriminologiya ilmida ham ichki konseptual kurashlar davom etdi. Masalan, taniqli kriminolog olim I.I.Karpes jinoyatchilik va umuman uni sodir etuvchi shaxs shakllanishini sof ijtimoiy omillar va sinfiy jamiyat muammolari bilan bog‘lab, bu jarayonda biologik zamin mavjudligini mutlaqo rad etgan bo‘lsa[9], aksincha, professor Yu.M.Antonyan ushbu sof sotsiologik yondashuvga muqobil fikr bildirdi. Antonyan o‘z tadqiqotlarida shaxsning ichki psixologik tuzilishi, uning ekzistensial xavotirlik darajasi va hayotga moslasha olmaslik xususiyatlari tashqi ijtimoiy muhitdan qat’i nazar, jinoiy xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi mustaqil omil bo‘lishi mumkinligini asoslab berdi[10]. Shuningdek, V.N.Kudryavsev shaxsning jinoiy xulq-atvorini tizimli-strukturaviy tahlil qilib, uni muayyan qaror qabul qilish va xulq-atvorni ijtimoiy nazorat qilish mexanizmining buzilishi sifatida baholadi[11].

Mahalliy kriminologiya maktabi vakillari ham shaxsning kriminologik qiyofasini mikrosotsium darajasida o‘rganishga katta hissa qo‘shganlar. Masalan, M.H.Rustambaev shaxsning jinoiy xulq-atvori shakllanishida oilaviy muhit va ma’naviy-axloqiy deformatsiyalar yetakchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi[12]. U.Tadjixanov esa shaxsning

kriminologik xususiyatlarini uning «huquqiy madaniyati» va huquqiy ongi darajasi bilan uzviylikda o‘rganib, huquqiy nihilizm shaxsdagi jinoiy moyillikning bosh omili ekanligini ko‘rsatgan[13]. Jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik va mahalla institutining rolini tadqiq etgan G.A.Ahmedov esa shaxsdagi deviantlikni jinoiy xulq-atvorga aylanishini to‘xtatib qoluvchi asosiy kuch mahalla darajasidagi individual-profilaktik ta‘sir tizimi ekanligini asoslab beradi[14].

Ana shunday ko‘p qirrali nazariy qarashlarning inkor va induksiya jarayonlari natijasida zamonaviy kriminologiya ilmi yangi bir integral konsepsiyaga — biosotsiopsixologik yondashuvga keldi. Bugungi kunda jinoyat sodir etishga moyil shaxs sof ijtimoiy muhitning to‘g‘ridan to‘g‘ri qurboni yoki biologik jihatdan nuqsonli shaxs sifatida ko‘rilmaydi. Zamonaviy kriminologiya shaxsni ijtimoiy muhit va shaxsiy xususiyatlarning disintigratsiyasi, ya‘ni ular o‘rtasidagi mutanosiblikning buzilishi mahsuli sifatida qaraydi. Muhit qanchalik kriminogen bo‘lmasin, agar shaxsning ichki irodaviy va axloqiy himoya tizimi kuchli bo‘lsa, u jinoiy xulq-atvordan tiyila oladi; va aksincha, shaxsning ichki dunyosida deformatsiya mavjud bo‘lsa, u barqaror ijtimoiy muhitda ham deviant traektoriyani tanlashi mumkin.

Jinoyat sodir etishga moyil shaxs va deviant xulq-atvor o‘rtasidagi munosabat sabab va oqibat xarakteriga ega. Bu yerda ikki tomonlama kuchli bog‘liqlik mavjud:

1. Deviant xulq-atvor shaxsning kriminologik deformatsiyasini shakllantiruvchi muhit sifatida;
2. Shaxsning ichki jinoiy moyilligi tashqi muhitda deviant harakatlar orqali aks etishi sifatida.

Individ dastlab ijtimoiy normalarni buzish orqali, masalan, mayda bezorilik, jamoat joyida spirtli ichimliklar iste‘mol qilish jamiyatning unga nisbatan bo‘lgan munosabatini sinab ko‘radi. Faylasuf va sotsiolog G.Bekkerning «tamg‘a bosish» nazariyasiga ko‘ra[15], bir marta deviant harakat sodir etgan va atrofdagilar tomonidan «huquqbuzar» deb baholangan shaxs ichki dunyosida ushbu rol ni qabul qila boshlaydi va bu uning jinoyatga bo‘lgan moyilligini yanada kuchaytiradi

Kriminologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning mutlaq ko‘pchiligi (taxminan 85-90% i) muqaddam uzoq vaqt davomida deviant xulq-atvorga ega bo‘lgan, surunkali ravishda spirtli ichimliklar yoki psixoaktiv moddalar iste‘mol qilgan, oilada tizimli ravishda zo‘ravonlik ishlatgan shaxslardir. Bu holat deviantlik va jinoyatga moyillik portreti bir-birini to‘ldirishini isbotlaydi.

Milliy olimlarning tadqiqotlarida qayd etishicha, shaxsning jinoyatga moyilligi va deviantligi uning ijtimoiy nazoratdan chetda qolganligi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Ayniqsa, mahalla va oila institutining tarbiyalovchilik funksiyasi susaygan hududlarda deviant xulq-atvorning jinoiy xulq-atvorga transformatsiyasi juda tez kechadi.

Mahalla darajasida ushbu bog‘liqlikni aniqlashning amaliy ahamiyati shundaki, «mahalla yettiligi» va profilaktika inspektori shaxsning hali jinoyat qilmasdan turib, uning deviant xulq-atvoriga (ishsizligi, ichkilikka ruju qo‘yganligi, oilaviy nizolariga) qarab undagi «kriminogen xavf» darajasini baholay oladilar.

Xulosa qilib aytganda, kriminologiyada «jinoyat sodir etishga moyil shaxs» tushunchasini deviant xulq-atvor bilan uzviylikda o‘rganish jinoyatchilikning oldini olishning metodologik asosini tashkil etadi. Deviantlik — bu jinoyatning «boshlang‘ich sinfi» bo‘lib, shaxs ongi va xulq-atvoridagi og‘ishlarning kriminal ko‘rinish olishiga imkon beruvchi ko‘prikdir.

Shaxsdagi jinoiy moyillik va deviantlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda anglash huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga (mahallaga) profilaktik ishlarni umumiy xarakterdan manzilli xarakterga o‘tkazish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda jinoyatlarga nisbatan murosasizlik muhitini yaratish va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish samaradorligini tubdan oshiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ломброзо Ч. Преступный человек. — Москва: Эксмо, 2005. — С. 84.
2. Тард Г. Сравнительная преступность. — СПб.: Изд-во О.Н. Поповой, 1907. — С. 114.
3. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд. — Москва: Мысль, 1994. — С. 210.
4. Мертон Р. Социальная структура и аномия // Социология преступности. — Москва: Прогресс, 1966. — С. 34-40.
5. Shaw C. R., McKay H. D. Juvenile Delinquency and Urban Areas. — Chicago: University of Chicago Press, 1942. — P. 102.
6. Сазерленд Э. Х. Повседневное понимание преступности // Криминология. — Москва, 2004. — С. 145-152.
7. Фрейд З. Я и Оно. — Москва: Эксмо-Пресс, 1999. — С. 56.
8. Sheldon W. H. Varieties of Delinquent Youth: An Introduction to Constitutional Psychiatry. — New York: Harper, 1949. — P. 78.
9. Карпец И. И. Проблема преступности. — Москва: Юридическая литература, 1976. — С. 162.
10. Антонян Ю. М. Психологическое отчуждение личности и преступное поведение. — Ереван: Изд-во ЕГУ, 1987. — С. 93.
11. Кудрявцев В. Н. Борьба мотивов в преступном поведении. — Москва: Норма, 2007. — С. 120.
12. Рустамбаев М. Х. Ўзбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси. Том 1: Умумий қисм. — Тошкент: Илму зиё, 2008. — Б. 240. (Изоҳ: Агар китоб рус тилида бўлса: Рустамбаев М. Х. Курс уголовного права Республики Узбекистан. Том 1: Общая часть. — Ташкент: Илму зиё, 2008. — С. 240).
13. Таджиханов У., Саидов А. Правовая культура: Теория и практика. — Ташкент: Академия МВД РУз, 1998. — Б. 115.
14. Ахмедов Ғ. А. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг криминологик асослари. — Тошкент: ИИВ Академияси, 2021. — Б. 174.

25-Aprel, 2026-yil

15. Беккер Г. Аутсайдеры: исследования по социологии девиантности. — Москва: Элементы, 2018. — С. 63.